O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 15 - noyabr 554-10-0-Q/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Ohangaron tumani hududida yo‘l transport hodisalarini oldini olish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Ohangaron tumani hududida yo‘l transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash uchun Ohangaron tumani “Alisher” mahalla fuqarolar yig'inining 2023-yil 18-oktabrdagi 25-son, Ohangaron tumani hokimligining 2023-yil 19-oktabrdagi 3348/3-son, viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yil 26-oktabrdagi 25/12-8315-sonli xatlari ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

1.1. Ohangaron tumani “Alisher” mahalla fuqarolar yig'inining 2023-yil 18-oktabrdagi 25-son, Ohangaron tumani hokimligining 2023-yil 19-oktabrdagi 3348/3-son, viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yil 8-avgustdagi 25/12-5337-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ohangaron tumani hududida yo‘l transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida tuman hududidan o‘tuvchi xalqaro ahamiyatga ega A 373 “M39 avtoyo‘li-Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lining 157-km.dan 159-km.gacha bo‘lgan

oraliq masofada “Alisher” aholi yashash hududidan o‘tuvchi avtomobil yo‘liga tezlikni o‘lchovchi radar qurilmasi o‘rnatilsin.

3. A 373 “M39 avtoyo‘li-Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lining 157-km.dan 159-km. oralig‘idagi “Alisher”aholi yashash joyini bildiruvchi (ko‘k fondagi) 5.24 "Aholi yashaydigan joyning boshlanishi" va 5.25 "Aholi yashaydigan joyning oxiri" yo‘l belgilari “Alisher”aholi yashash joyini bildiruvchi (oq fondagi) 5.22 "Aholi yashaydigan joyning boshlanishi" va 5.23 "Aholi yashaydigan joyning oxiri" yo‘l belgilariga o‘zgartirilib, amaldagi yo‘l harakati qoidalariga asosan avtomobillar tezligi 70 km.dan oshmagan holda harakatlanishi belgilansin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Maxmudov, ijrosini ta’minlash viloyat Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i B.Nigmanov zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi **Z.Mirzayev**